
ABDUVOHIDQORI ABDURAUFQORIYEV



Abduraufqoriyev Abduvohidqori (1856 - 1938) – o‘zbek jamoat va din arbobi. Toshkent shahrida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Dastlabki ta’lim-tarbiyani oilasida olgan. So‘ng Toshkent shahar Ko‘kcha dahasidagi Kesakqo‘rg‘on madrasasi mudarrisi Mulla Solihbekdan tahsil olgan. Buxoroda Ernazarbiy madrasasida o‘qigan. Ona tilidan tashqari arab, fors, turk va jonli rus tilini bilgan. 1907 yilda Toshkent shahridan Rossiya ikkinchi davlat Dumasiga deputat qilib saylangan. Toshkent shahri, Sirdaryo va Chimkent viloyati xalqi nomidan Dumaga talabnoma yozib yuborgan. Shu bois 1909 yilda maxfiy xizmat xodimlari tomonidan uyi maxfiy tintuv qilingan va isyonga chorlovchi chaqiriq topildi, degan soxta ayblov bilan Rossiyaning Tula viloyatiga inqilobchi sifatida besh yilga sudsiz surgun qilingan. Bu yerda rus adibi L.N.Tolstoy bilan tanishib, suhbat qurgan. Adib bilan shaxs va shaxsning katta xususiy mulk xususida suhbatlashgan, uning katta mulk-boylik haqida fikrlari adibga ma’qul kelgan. A.Abduvohidqoriev 1913 yil aprelda surgundan qaytgach, jamoat ishlariga aralashmay, Abdumavlonboy masjidida imomlik qilgan.

1917 yil fevral inqilobidan keyin yosh taraqqiyparlar bilan hamkorlik qilgan. 1917 yil aprel oyida Toshkent shahrida o‘tgan “Sho‘royi Islom” jamiyatining tashkiliy yig‘ilishida qatnashgan va jamiyatning raisi etib saylangan va 1920 yilgacha shu tashkilotda ishlagan. 1919 yilda Toshkent diniya nazorati raisi etib tayinlanadi, ammo oradan ko‘p o‘tmay vazifasidan ozod qilinadi. 1920-1921 yillarda Xorazm va Buxoro inqilobi voqealarida jalb etiladi. 1921-1922 yillarda Toshkent shahrida o‘tgan qozilar va sudyalar s’ezdida ishtirok etadi hamda Turkiston Oliy Sudi kollegiyasining a’zoligiga saylanadi. 1922-1923 yillarda yana Mahkamai shar’iyaga rais etib saylanadi. Biroq, tez orada vazifasidan ozod qilinib, fatvo bo‘limi a’zosi sifatida qoldiriladi. Zikr tushishga ruxsat bergani usun 300 so‘m jarima solinadi. 1926 yilda hukumat tomonidan sovet musulmonlari vakillari tarkibida Makka shahrida o‘tgan “Butun dunyo musulmonlari kongressi”da O‘zbekiston vakili sifatida qatnashadi. 1927 yilgacha Abdumavlonboy masjidida imom.

1933 yilda noma’lum bir arab bilan uchrashgansan degan bahona bilan Qozog‘istonga chaqirtirib olinadi va besh yarim oy qamoqda saqlanadi. Qamoqdan ozod bo‘lib, Toshkentga qaytgach, barcha ijtimoiy ishlardan voz kechib, faqat toat-ibodat bilan shug‘ullanadi va Shirin quduq mahalla masjidida imomlik qiladi. 1937 yil, 9 avgustda yana qamoqqa olinadi. Og‘ir qiynoqlar, ayniqsa, uch o‘g‘li Bosit, Bois (Oltoy) va Muqsudni qamoqqa olinganidan juda iztirobga tushgan qariya kaltak va ma’naviy azoblarga chidash bera olmay 1938 yil, 3 fevralda 84 yoshda qamoqxonada vafot etgan. Abduvohid qori

Abduraufqoriyev 1913 yilda o‘g‘li Bositga atab she’riy usulda yozilgan qiroat haqidagi “Tajvid” kitobini nashr ettirgan.